

## INSONLARGA XOS TOVUSH FE'LLARINING SEMANTIK TASNIFI

**Alijonova Durdona Farxodjon qizi**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15860354>

**Annotatsiya:** O'zbek tilshunosligida tovush fe'llari semantik maydonida insonlarga xos tovush fe'llari mikromaydoni dastlabki o'rinda turadi. Bunday birliklar o'zining semantik qiymati hamda nutqda muntazam ishlatilishi bilan farqlanadi. Insonlarga xos tovush fe'llari nutqning ovoz tomonini, tovush talaffuzi tomonini ifodalaydigan fe'llardir. Aynan tovush chiqarish xususiyati tovush fe'llarining yetakchi elementi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** tovush fe'llari, semantik tasnif, insonlarga xos tovush fe'llari: fiziologik, psixik hamda nutqiy tovush fe'llari, uslubiy xususiyatlar, emotsional-ekspressivlik.

Tovush fe'llari – jonli va jonsiz narsalarning mexanik tebranma harakati natijasida: insonlarning gapirish, kuylash, qichqirish, yig'lash jarayonida; hayvonlarga hamda parrandalarga xos tovushlarni ifodalashda; shuningdek, tabiat hodisalari natijasida vujudga keladigan har qanday quloq eshitadigan ovozni bildiruvchi, “ovoz chiqarish” xususiyatiga ega fe'llardir.

Tovush fe'llari tovushning o'zini emas, tovush chiqaruvchining faol harakati hamda tovush hosil qilish qobiliyatini ham ifodalaydi. Shuning uchun ham, ular harakat fe'llari, nutq va tafakkur fe'llaridan ajralib turadi<sup>1</sup>.

Tovush fe'llarida shakl va mazmun muvofiqligi mavjud: arrillamoq – ar-ar tovush chiqarmoq: yig'lash-baqirish holatini, ya'ni insonlarga xos, shuningdek, hayvonlarga xos ovoz chiqarish jarayonini ham ifodalashi mumkin.

Tovush fe'llari o'z semantikasida xilma-xildir. Jumladan, aksirmoq, aksa urmoq, chuchkurmoq insonning dimog'i qichishi sababli istalmagan tarzda burun bo'shlig'idan havoning zarb bilan chiqarilish harakatidan vujudga keladi. Odatda, og'zaki nutqda chuchkurmoq leksemasi qo'llaniladi<sup>2</sup>.

O'zbek tilshunosligida dastlab I.Qo'chqortoyev nutq fe'llari semantik maydonini ishlab chiqdi. Hozirgi o'zbek tilida nutq fe'llarining sakkizta semantik guruhlarini ajratadi: demoq fe'li, gapiruv fe'llari, ifodalov fe'llari, talaffuz fe'llari, subyektiv hukm fe'llari, nutqiy da'vat fe'llari, simmetrik nutq fe'llari, sukut fe'llari<sup>3</sup>. Ushbu tadqiqotda talaffuz fe'llarining talqini tovush fe'llariga o'xshash, gapiruv fe'llari guruhi ichida ham ayrim tovush fe'llarei izohlangan. Tovush fe'llari nutq fe'llari semantik maydonida o'rganilgan.

<sup>1</sup> Юлдашев А.А. Лексикографирование звукоподражательных и образных слов. – М.: Наука. 1972 стр. 163.

<sup>2</sup> Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining katta zohli lug'ati 1-jild. – Toshkent. “G'afur G'ulom”, 2022.

<sup>3</sup> Қўчқортўев И. Сўз маъноси ва унинг валеңлиги. – Тошкент: Фан, 1977. Б. – 89.



O'zbek tilidagi tovush fe'llari umumturkiy til qatlamiga kiradi. Ular qadimgi tabiiy va insonga xos tovushga taqlid so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, ko'pincha o'zining morfologik tarkibi va semantik xususiyatlariga ko'ra oraliq shaklli so'zlar qatoriga kiradi. Bu so'zlarning tuzilishi turkiy tillardagi tovushdan yasalgan so'zlarning til imkoniyatlaridan dalolat beradi. Tovush fe'llarining boshqa tillardan kirib kelishi kamdan kam holda uchraydi<sup>4</sup>, kabi fikrlar X.Muhitdinovanning ishida bayon etilgan hamda tovush fe'llarini etimologik jihatdan izohlangan bo'lsa-da, bu tadqiqot ishi keying fe'l semantikasiga oid ishlarda deyarli o'z aksini topmagan. Darsliklarda tovush fe'llari fe'lning semantik guruhlariga kiritilmagan. Semantik xususiyatiga binoan insonlarga xos tovush fe'llarini bir necha guruhlariga ajratgan holda tahlil qilinadi:

1. Insonning fiziologik harakat-holatiga xos tabiiy tovush fe'llari.
2. Insonning psixik holatini ifodalovchi tovush fe'llari.
3. Nutqiy tovush fe'llari.

1. Insonning fiziologik harakat-holatiga xos tovush fe'llari – inson fiziologiyasida, ya'ni organizmida ixtiyoriy bo'lmagan tovush chiqarilishini bildiradigan fe'llar. Aksirmoq, aksa urmoq, chuchkurmoq, chushkurmoq – nafas yo'llaridan chang yoki g'uborni tozalash uchun kuchli havo chiqishi bilan kechadigan fiziologik harakatni hamda ovozni ifodalaydi.

Inqillamoq kasallik va zaiflikdan qiynalib ovoz chiqarmoq. Toshpo'latning dadasi yotgan joyida inqillab belini changalladi (O'.Hoshimov "Sirli yulduz" 189-bet).

Ingramoq: Oyim do'ppidagi suvdan ozgina ichib tag'in ingradi. – Jon bolam, yolg'izim... (Ikki eshik orasi, 98-bet)

Hansiramoq yugurish, og'ir yuk ko'tarish, havo yetishmasligi, hayajonlanish, kasallik natijasida tez-tez, og'ir nafas olish hamda ovoz chiqarishni bildiradi; halloslamoq, harsillamoq fe'llari bilan sinonimik qatorga ega.

Halloslamoq: Bir mahal Kimsan akam halloslab kelib qoldi. Xuddi shu payt "Po-vago-nam" degan asabiy qichqiriq yangradi. (Ikki eshik orasi, 95-bet)

Harsillamoq: Toshpo'lat hamon to'xtamas, harsillab yugurib borar, sirg'anib- sirg'anib ketardi (O'.Hoshimov "Sirli yulduz" 205-bet).

Kekirmoq oshqozonda ortiqcha ovqat to'lishi natijasida tasodifan chiqariladigan qisqa, keskin tovush chiqarmoq. Yong'oqning yana bitta fazilati bor: qorinni to'q tutadi. To'rttasini yeb olsangiz, yarim kun kekirib yurasiz. (Dunyoning ishlari, 21-bet)

<sup>4</sup> Мухитдинова Х.С. Глаголы звучания в узбекском языке. Кандидат наук. Дисс. – Тошкент, 1979. – С. 40-41

Ping'illamoq og'riq natijasida chiqariladigan tovush jarayoni hisoblanib, insonning nazal tizimi bilan bog'liq. Nazal tovushlar: b, p, m kabilarning talaffuzida o'zgarish kuzatiladi, dimog'da sekin-sekin ovoz chiqarib gapirmoq. U dimog'da gapirar edi. Uning ovozi ping'illab eshitilgani uchun, Begimxon piqillab kuldi (I.Rahim, Chin muhabbat).

Pishillamoq yengil va yuqori tonli tovush chiqarish jarayoni bo'lib, og'riq yoki noqulaylikda vujudga keladi, burun orqali ovoz chiqarib nafas olmoq. Hojimurod nihoyatda ochiqqan edi, hech qayoqqa qaramay, pishillab, lunjiga ovqat tiqardi (S.Ahmad, Jimjitlik).

Pishnamoq aynan pishillamoq, so'zlashuv nutqi hamda badiiy adabiyotda qo'llanadi. Shoto'ra muallim pishnab, ko'zlarini pirpiratar edi (Sh.Xolmirzayev, Saylanma).

Puflamoq, pufpuflamoq ko'pincha kuchli nafas olish yoki chiqarishda amalga oshadigan fiziologik harakatni ifodalaydi: Anvar cho'nqayib olgancha bor kuchi bilan puflayverib tomoqlari achishib ketdi (O'.Hoshimov "Bahor qaytmaydi").

Tuflamoq – organizmdan ortiqcha narsani chiqarib yuborish jarayonida chiqadigan tovushni bildiradigan fiziologik jarayonni ifodalaydi. Ana endi, tuflab tugadurgan pullar ham chiqdi...Otangga rahmat, dadasi ko'rgan! (A.Qodiriy, felyeton).

Xirillamoq tovush fe'li insonning nafas yo'llaridagi o'zgarishni ifodalaydi. 1. Faqat sal xirillagan tovush bilan aytilgan ashula ovozi kelib turardi. 2.–Suv – dedi xirillab. 3. Bilagimdan tutib, xirillab kuldi (O'. Hoshimov "Cho'l havosi" 142-159-betlar).

Chapillamoq, chapillatmoq insonlarning ovqat yeyish jarayonida tez nafas olish va yeyishda vujudga keluvchi tovush fe'li. Qodir qalin lablarini chapillatib, nonni uzoq chaynadi (E.Usmonov, Yolqin).

G'ijillamoq: ammam yana jimib qoldi. Nefasining g'ijillashi kuchayib ketdi. (Ikki eshik orasi, 22-bet)

Shuningdek, insonlarning fiziologik holatiga xos tovush fe'llari mavjudki, ularni ayni quloq bilan emas, maxsus apparatlarda yoki past ovozda eshitilib, ifodalanishi mumkin: dukillamoq, gupillamoq – yurak urishini ifodalaydi. Uning [Mirvalining] yuragi dukillab ura boshladi (S.Ahmad, Jimjitlik).

Gupillamoq tovush fe'li. [Otabekning] Haligi bosinqirashdan yuragi gupillab, vujudini ter bosgan edi (A.Qodiriy, O'tkan kunlar). Qirqkokil sochini yarmisi yelkasidan oshibnyerga tegay-tegay deb turibdi. Yuzini aniq ko'rmasam ham yuragim gupillab ketdi. (Ikki eshik orasi, 239-bet)



Qurillamoq, qulduramoq – ichaklardagi harakat natijasida yuzaga keluvchi tovushlarni ifodalovchi tovush fe'llaridir. Bashirjon qovun rastalari oralab ketar ekan, yangi chiqqan bodringga ko'zi tushib, qorni qulduradi. (N.Aminov, Qahqaha).

Insonning psixik holatini bildiruvchi tovush fe'llari kulish hamda yig'lash holatini ifodalaydi. Insonlarning kulish holatini bildiruvchi tovush fe'llariga hihilamoq, hirlingamoq, hingillamoq, hingirlamoq, qahqahlamoq, qiqirlamoq, qixqixlamoq, xaxalamoq, xexelamoq, xixilamoq, sharaqlamoq (ko'chma ma'noda) kabilarni kiritish mumkin. Ammo ular qanday emotsional holatni ifodalashiga ko'ra farqlanadi. Bu tovush fe'llarining barida salbiy emtosionallik ifodalanadi. Asosan, so'zlashuv va badiiy uslubda qo'llaniladi.

Hirlingamoq tovush fe'li: Mamat hirlinglab kuladi (O'.Hoshimov "Cho'l havosi" 189-bet).

Hingillamoq aynan hirlingamoq. Hingillab kulishar, kattalardek qo'llarini harakatga solib gaplashishar va yana kulib qo'yishardi. (Mirmuhsin, Umid).

Qahqahlamoq qattiq kulmoq. Hamma qahqahlab kuldi (N.Safarov, Saodatning qissasi).


**Qah-qah urmoq, otmoq, solmoq.** Shunaqa qah-qah solib, beg'ubor kulishardiki, daraxtlarda tunagan qushlar cho'chib qanot qoqadi. (Shuhrat, Shinelli yillar).

Qixqixlamoq shu kabi tovush chiqarmoq. Jamolboy hammaga bir-bir qarab, qixqixlab kulib qo'ydi. (Oybek, Tanlangan asarlar).

Sharaqlamoq ko'chma ma'noda qattiq kulmoq ma'nosini ifodalaydi. Shoir bo'lsa hamon sharaqlab kular, chiroyli ko'zlari suzilib ketgan edi (O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor).

Insonlarning yig'lash holatini bildiruvchi tovush fe'llariga big'illamoq, bo'zlamoq, ho'ngillamoq, ho'ngramoq, ho'ngurak otmoq, ingalamoq, ingillamoq, uvvos solmoq (tortmoq, ko'tarmoq), piqillamoq, o'kirmoq, o'kramoq, chinqiramoq kabilarni kiritdik. Ulardan quyidagilar: big'illamoq, ingalamoq, ingillamoq, chinqiramoq go'dak yig'isini ifodalovchi tovush fe'llari hisoblansa; bo'zlamoq, ho'ngillamoq, ho'ngramoq, ho'ngurak otmoq, uvvos solmoq (tortmoq, ko'tarmoq), o'kirmoq, o'kramoq kabilar kattalarga xos yig'lash jarayonini bildiradi.

Big'illamoq qattiq ovoz chiqarib yig'lamoq; asosan, chaqaloq yig'isini ifodalashda qo'llaniladi. Bola big'illab yig'lar, Munisa esa bunga e'tibor bermasdi. (F.Musajonov, Himmat).



Bo'zlamok o'kirib, nolalar qilib, uvvos solib yig'lamoq. Har vodiyni bir-bir izladim, Yetim qo'zi yanglig' bo'zladim. (H.Olimjon)

Hiqillamoq hiq-hiq ovoz chiqarib yig'lamoq. Nurxon hiqillab ko'zlarini arta boshladi. (O.Yoqubov, Larza).

Ho'ngillamoq tovush fe'li. Chidolmadim sira yig'lab yubordim, Maro ho'ngilladi. Bir azo turdi (U.Nosir).

Ho'ngramoq shu kabi tovush chiqarib yig'lamoq. Daraxtlar orqasidan ho'ngrab yig'lagan tovush eshitildi. (Oybek, Tanlangan asarlar).

Ho'ngurak otmoq yig'lamoq. [Sultonxon] Umriniso bibining darchasidan hatlar-hatlamas ho'ngurak otib yig'lab yuborgan edi. (Cho'lpon, Kecha va kunduz).

Piqillamoq tovush fe'li. Komila piqillab yig'lagan cha yugurib chiqib ketdi (A.Muxtor, "Chinor").


O'kirmoq kuchli yig'i ovozini chiqarmoq. Kutilmaganda Rixsi xolaning ko'ngli yumshadi-yu, o'kirib yig'lab yubordi. (P.Qodirov, Qora ko'zlar).

O'kramoq: O'krab yig'lab yubordim. – nega kutmas ekanman? Sizdan boshqa kimim bor! (Ikki eshik orasi, 90-bet)

Nutqiy tovush fe'llari bugungi kungacha nutq fe'llari semantik maydoni tarkibida tadqiq qilingan, lekin nutqiy jarayonda ovoz va uning xususiyatlari ham namoyon bo'ladi. Do'rillamoq, guvranmoq, ming'irlamoq, pichirlamoq, po'ng'illamoq, to'ng'illamoq, visirlamoq, g'ovurlashmoq, g'udranmoq, g'udullamoq, g'udurlamoq, g'udunglamoq, g'o'dranmoq, g'o'ldiramoq, shang'illamoq, shang'imoq, shivirlamoq tovush fe'llari nutqiy jarayondagi emotsional-ekspressivlikni ham bildiradi, "ovoz chiqarish" semasi bilan birga kishining nutq jarayoniga munosabati ham tushuniladi.

Do'rillamoq yo'g'on, titroq, biroz bo'g'iq ovoz chiqarmoq, shu kabi ovoz bilan gapirmoq ma'nolari mavjud. Qodirjonning ovozi do'rillab qoldi. (S.Zunnunova, Go'dak hidi). Ushbu misoldan ayonki, do'rillamoq tovush fe'li balog'atga yetgan o'smirlarga (erkak jinsi) nisbatan qo'llanadi, chunki bu davrda ovoz tembri ham o'zgaradi.

Guvranmoq noaniq, tushunib bo'lmaydigan ovoz chiqarmoq, noaniq gapirmoq. Javob eshitilmagach, chol o'zicha guvranib ko'chaga chiqdi. (X.Sultonov, Onamning yurti). Uchi to'ziq dumini tagiga yig'ib olgach: "Ha, jinqarchaxon, taxtga o'tirgilari kepqoldimi?" – deb guvrandi. (A.Obidjon, Kezorgan Boychechak).



Pichirlamoq past ovozda gapirmoq, shivirlamoq. Abduvali o'n so'mlik, besh so'mlik, uch so'mlik pullarni olib, pichirlab sanay boshladi (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi).

G'udranmoq baland, shovqinli tarzda ovoz chiqarishni, tushunarsiz ohangda gapirishni ifodalaydi. Vafo attor: "Betavfiq, imonsiz", deya g'udranib, eski sholchasini ostiga to'shab, oldiga klyonkani yozdi (N.Aminov, Qahqaha, 138-bet). Shang'illamoq tovush fe'li: Talabalardan kimdir rubob chalib qo'shiq aytar, birov birov bilan shang'illab gaplashar, xullas, hammayoq shodlikka to'lgan edi (O'.Hoshimov "Shamol esaveradi"). Shang'illamoq insonlarga xos tovush fe'li baland ovozda gapirish semasi bilan salbiy emotsionallikni ifodalash uchun badiiy matnda qo'llanadi, lekin bu o'rinda, ijobiy ma'noda qo'llangan.


Qichqirmoq: "Kvazar!" dermish u qichqirib, "kvaza-a-r!" dermish yana qichqirib (O'.Hoshimov "Shamol esaveradi"). Bu kabi tovush fe'llari baland va yo'g'on ovozda gapirish, xabarni yetkazishda qo'llanadi. Qichqirmoq, chinqirmoq, chiyillamoq, hayqirmoq kabi tovush fe'llari bolalar nutqida yoki hayvonlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, masofaning uzoqligi kabi ma'nolar ham mavjud.

Past ovozda gapiruv amalini bildiruvchi tovush fe'llariga umumiy sema "past ovozda gapirmoq"dir. Shivirlamoq, pichirlamoq, shipshimoq tovush fe'llari.

Shivirlamoq tovush fe'li. Ko'rpani ko'tarib qaradi-yu, Muqaddamga o'girilib, shivirladi. – Uxlab qolibdi-ku... – Mayli, – dedi pichirlab (O'.Hoshimov). Shivirlamoq, pichirlamoq tovush fe'llarining nutqdagi, suhbat jarayonidagi sirlik, g'iybat, chaqimlik kabi semalari bilan birga suhbatdoshlarning ham o'zaro sirdosh ekanligini ham bilishimiz mumkin. Shuningdek,

insonlarga xos shunday tovush fe'llari borki, ularda ovozning baland yoki past darajada ekanligi muhim emas, balki talaffuz holati muhim hisoblanadi. Shu xususiyatga ko'ra noaniq tovushda gapirishni ifodalaydigan insonlarga xos tovush fe'llarini: do'ng'illamoq, guvranmoq, po'ng'illamoq, to'ng'illamoq, g'o'ng'illamoq, g'o'ldiramoq, g'udranmoq, ming'illamoq, ming'irlamoq, ping'illamoq, ping'irlamoq, g'iringlamoq kabilarni kiritildi. Fonetik variantlar: do'ng'illamoq, to'ng'illamoq, po'ng'illamoq, g'o'ng'illamoq; ming'illamoq, ming'irlamoq; ping'illamoq, ping'irlamoq kabilar. Do'ng'illamoq, to'ng'illamoq, po'ng'illamoq, g'o'ng'illamoq fe'llarida qo'pollik va dag'allik ma'nolari mavjud:

G'o'ldiramoq, g'udranmoq fe'llarida esa hayajonlanish, qo'rquv holatlari bilan birga nutqning tugal emasligini ham, kishilardagi psixologik-patalogik holatlarni ham ifodalaydi.



Ming'irlamoq yoki ming'illamoq tovush fe'llarining salbiy ma'no ottenkasi mavjud:– Domla bormilar? – dedi ming'illab. (O'.Hoshimov "Nur borki soya bor"). Misoldagi fe'lda nutqning noaniqligi, ovozning past va tushunarsizligi kabi ottenkalari ham borligini ko'rish mumkin. Demak, fe'l semantikasida tovush fe'llarining ham maydoni mavjud. Tovush fe'llari semantik maydonining markazida insonga xos tovush fe'llari turadi. Ushbu guruh uchta leksik-semantik mikromaydonlarga ajratilib, tahlil qilindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан. 1977. – 152 б.
2. Мухитдинова Х.С. Глаголы звучания в узбекском языке. Кандидат наук. Дисс. – Тошкент. 1979. – С. 40-41
3. Hoshimov O'. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 280.
4. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – 543 b.
5. Hoshimov O'. Sirli yulduz. – Toshkent: Nurli dunyo, 2022. – 160 b.
6. Hoshimov O'. Cho'l havosi. – Toshkent: Nurli dunyo, 2022. –128 b.

